

**O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI OLİY TA'LİM,  
FAN VA INNOVATİYALAR VAZIRLIGI  
QARSHI DAVLAT UNIVERSİTETİ**

**TAHRIRİYAT HAY'ATI**

**Bosh muharrir:** prof. Nabihev D.H.  
**Bosh muharrir o'rinnbosari:**  
f.-m.f.d. Bekpulatov I.R.  
**Mas'ul kotib:** dots. Ne'matova Y.O.  
**Tahririyat hay'ati**  
**a'zolari:**  
prof. Bahriiddinova B.M.  
prof. Bo'riyev O.B.  
prof. Yoziyev L.Y.  
prof. Jabborov A.M.  
prof. Jumayev T.J.  
f.-m.f.d. Imomov A.A.  
k.f.d. Kamolov L.S.  
prof. Kuchboyev A.E.  
prof. Mengliyev B.R.  
prof. Normurodov M.T.  
prof. Nurillayeva Sh.N.  
prof. Nurmanov S.E.  
p.f.d. Oripova N.X.  
prof. Ochilov A.O.  
prof. Tojiyeva G.N.  
prof. To'rayev D.T.  
prof. Umirzakov B.Ye.  
prof. Xayriddinov B.X.  
prof. Xolmurodov A.E.  
prof. Choriyev S.A.  
prof. Shodihev R.D.  
prof. Shodmonov N.N.  
prof. Erkayev A.P.  
prof. Ernazarova G.X.  
prof. Eshov B.J.  
prof. Qurbonov Sh.Q.  
prof. Qo'yiliyev B.T.  
prof. Bekmurodova G.H.  
dots. Ro'ziyev B.X.  
dots. Eshqorayeva N.G'.  
dots. Xolmirzayev N.S.  
dots. Hamrayeva Y.N.  
prof. Bobonazarov G.Y.  
prof. Shukurov O.M.

**2024  
(2)2**

**QarDU xabarlari**  
Ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal

**Muassis:** Qarshi davlat universiteti  
**Jurnal Qashqadaryo viloyati Matbuot**  
**va axborot boshqarmasi tomonidan**  
**2010.17.09 da**  
**№ 14-061 raqamli guvohnoma**  
**bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.**

**Musahhihlar:**

Shodmonova D.E.  
Bazarova D.B.  
Tursunboyev B.N.  
Ubojenko A.S.

**Sahifalovchi**  
Yuldashev D.N.

**Texnik muharrir:**  
Raxmatov M.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi Rayosatining  
qarorlari bilan fizika-matematika, kimyo,  
biologiya, tarix, falsafa, siyosatshunoslik,  
filologiya, pedagogika-psixologiya va  
iqtisod fanlari bo'yicha doktorlik  
dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini  
chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar  
ro'yxatiga kiritilgan.



**Jurnal 2009-yilda  
tashkil etilgan.**

**MUROJAAT UCHUN MANZIL:**

**Pochta manzili:** 180003, Qarshi,  
Ko'chabog', 17.Qarshi davlat universiteti,  
Filologiya fakulteti binosi, 107-xona.

**Telefon:** 97-222-10-80

**TelegramID:**

[https://t.me/Qardu\\_Xabarlari2024](https://t.me/Qardu_Xabarlari2024)

**Elektron pochta:** qardu\_xabarlari@mail.ru

**Veb-sayt:**

<https://qarshidu.uz/oz/page/ilmiy-jurnal-NEW>

**Aniq fanlar**

Jurnaldan olingan materiallarga "QarDU xabarlari" jurnalidan olindi", degan havola berilishi shart. Mualliflardan kelgan materiallar egalariga qaytarilmaydi.

## MUNDARIJA

### FIZIKA-MATEMATIKA

<b>Tashatov A., Eshboboev S., Usmanova Y.</b> Research composition and structures of the surface heterostructural films of $\text{Ga}_x\text{Me}_y\text{As}/\text{GaAs}$ .....	4
<b>Muradov N.M., Farmonov N.P.</b> Electrical instability phenomena in irregular silicon structures.....	9
<b>Нормуродов Д., Ташатов А., Хасанов М.</b> Механизмы формирования нанопленок оксидов $\text{SiO}_2$ на поверхности Si.....	16
<b>Mamatov A.U.</b> Self-similar analysis of doubly nonlinear complex cross-diffusion processes.....	22
<b>Бекпулатов И.Р., Норбутаев Н.Э., Хакбердиев Э.А.</b> Формирование тонких пленок $\text{CrSi}_2$ твердофазным ионно-плазменным методом.....	29
<b>Akhmedzhanov F.R., Toshpulatov I.Sh.,</b> Detection of a particular orientation and polarization in gallium arsenide crystals.....	36
<b>Нельматов И.Л., Умарова С., Хайдардинов Б.</b> Технологический и температурно-влажностный режим в гелиосушильной камере с аккумулятором тепла.....	43
<b>Игамов Б.Д., Камардин А.И., Бекпулатов И.Р., Камилов Т.С., Касимов А.С., Норбутаев Н.Э.</b> Исследование покрытий $\text{Mn}_4\text{Si}_7$ , полученных диффузионным методом, с помощью рентгеновского дифрактометра.....	49
<b>Boymurodov F.F.</b> O‘zbek tili uchun so‘zshakllarini hosil qilish va tahlil qilish algoritmlari.....	56
<b>Ahmedova Q., Yusupova Sh., Mirzoodilov B.</b> Qashqadaryo viloyatida turizm o‘sishi turg‘unligini ta’minlashning matematik modeli.....	61
<b>Джураев Н.</b> Фундаментальные решения одного класса вырождающегося эллиптического уравнения.....	68

### KIMYO

<b>Boltayeva G.X., Abdukamolova A.B., Kodirov O.Sh., Nurmanov S.E., Tabiiy yog‘larning yog‘ kislotalaridan olingan noionik sirt faol moddalarning glb soni va sirt faolligini taqqoslash.....</b>	74
<b>Mahmadiyorova Ch., Ibodova N.</b> Tritsiklik xinazolin alkaloidlarining qiyosiy kimyoviy o‘zgarishlari.....	78
<b>Eshonqulov. M N. Bo‘rixonov B.X.</b> Natronli pishirish jarayoni davrida turli parametrlarni ajralib chiqayotgan sellyulozaning sifat ko‘rsatkichlariga ta’sirini o‘rganish va optimal jarayon davomiyligini belgilash tadqiqlari.....	84
<b>Eshonqulov. M N. Bo‘rixonov B.X.</b> Kimyoviy qayta ishlashga yaroqli sellyulozani oqartirish jarayonida turli reagentlar hamda ta’sir etuvchi parametrlarni optimal holatini belgilash.....	90
<b>Pirnazarov N.B., Egamberdiyeva Sh.U.</b> 2,3-dimetilxinozolin-4-onlar qatorida tioamidlash reaksiyalari.....	95
<b>Ziyadullayev O., Ablakulov L., Buriyev F., Boytemirov O., Otamuxamedova G.</b> Atsetilen spirlari vinil efirlarini geterogen katalitik sistemada sintez qilish usuli.....	101

<b>Karimova Z.M., Nurmanov S.E., Kodirov O.Sh.</b> Ko‘p yadroli polimetilen aromatik karbon kislota sintezi va tuzilishini o‘rganish.....	109
<b>Salieva M.K., Ziyadullaev O.E., Otamuxamedova G.Q., Ablaqulov L.Q.</b> Geksin-1 va ba’zi geteroatomli ketonlar asosida atsetilen spirtlari sintezi synthesis of acetylene alcohol based on hexyn-1 and some heteratomic ketones.....	114
<b>Xakimova Z., Xudoyberdiyeva O.</b> Oksidlash reaksiyalari asosida 4-gidroksi-2,3-penta-metilen-3,4-digidroxinazolin-4-on sintezi.....	121
<b>Normamatov F.H.</b> Obtaining the influence of technological parameters on the quality of potassium nitrate.....	126
<b>Ахмаджанов И.А., Джалилов А.Т., Каримов М.У., Ортиков Н.Т.</b> Изотермы адсорбции паров воды и бензола на селективном сорбенте для извлечения лития.	132
<b>Zaripov M.X., Axmedov V.N., Olimov B.B.</b> Furan hosilalari asosida tarkibida fosfor saqlagan ionitlarning olinishi va xossalari tadqiqi.....	138
<b>Beshimov I.A., Axmedov V.N., Olimov B.B.</b> Poliuretan sintezi va xossalari.....	143
<b>Toshboyev S.O., Xafizov A.R., Axmedov V.N., Panoyev E.R.</b> Gazlarni nordon komponentlardan tozalash qurilmalarida ko‘piklanish sabablari va uni oldini olish.....	149

## BIOLOGIYA

<b>Omonov O.E.</b> Katta va kichik O‘radaryo havzasi flora va o‘simpliklar qoplaming o‘rganilish tarixi.....	154
<b>Duschanova G.M., Ibrohimova G.A.</b> Janubi-G‘arbiy Qizilqum sharoitida <i>Salsola sclerantha</i> cam. turi assimilyatsiyalovchi organlarining morfo-anatomik tuzilishi.....	160
<b>Raxmatullayev B.A.</b> Oq Ostona suv havzasi qirg‘oq bo‘yi xara o‘simligi nematodalar faunası .....	167
<b>Bobonazarov G‘.Y. Omonova N.R.</b> Qashqadaryo viloyati sharoitida tovuq qizil kanasi <i>dermanysus gallinae</i> ning (redi, 1674) morfobiologiyasi.....	172
<b>Matyakubov Z., Ro‘zmetov R.S., Abdullaeva M., Doschanova M.B., Iskandarov A., Otayev O., Abdullaev I.I.</b> Xorazm viloyati sharoitida shira bitlarning morfologik xususiyatlari va tarqalishi .....	176
<b>Baratova Sh.S., Kurbanov A.Sh.</b> Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari qishloq sharoitida emizikli ayollarning amaldagi ovqatlanishi.....	181
<b>Hazratova H.N., Rahmatullayev Y.Sh., Qurbonov Sh.Q.</b> Qishloq sharoitida kichik mакtab yoshidagi bolalarining ayrim vitaminlar bilan ta’milnishi .....	186
<b>Eshquvvatova X. S., Bo‘ranova M.O.</b> Yakkabog‘ tumanidagi Eremurus olgae Regel senopopulyatsiyasining floristik tarkibi .....	190

2. Браун Д., Флойд А., Сейнзбери М. Спектроскопия органических веществ. – М.: Мир, 1992.
3. Беллами Л. Новые данные по ИК-спектрам сложных молекул. – М.: Мир, 1971.
4. Наканиси К. Инфракрасные спектры и строение органических соединений. – М.: Мир, 1965.
5. Беллами Л. ИК-спектры сложных молекул. – М.: Мир, 1963.
5. Кенжаев А.Қ., Нурмонов С.Ә., Хакбердиев Ш.М. Синтез и свойства полиметилен нафталин сульфокислоты на основе вторичного продукта пиролиза углеводородов. // Universum: химия и биология. – Москва, 2022. – № 7(97). Часть 2. – С. 31–37.
6. Кенжаев А.Қ., Нурмонов С.Ә., Қодиров О.Ш. Пиролиз жараёни маҳсулоти “пиролиз мойи” таркибини аниклаш. // Kompozitsion materiallar. Ilmiy-tehnikaviy va amaliy jurnalı. – Тошкент, 2021. №2. –Б. 15–17.
7. Kenjaev A.Q., Nurmonov S.E., Qodirov O.SH. Synthesis of sulfokationits on the basis of secondary products. // “Фан ва технологиялар тараққиёти” Илмий–техникавий журнал. – Бухоро. 2022. №5. –Б. 100–110.
8. Kenjaev A.Q., Nurmonov S.E., Qodirov O.Sh., Ikromov A. Piroliz jarayoni ikkilamchi mahsuloti asosida polimetilennaftalin sulfokislota sintezi. // Kimyo va kimyo texnologiyasi. Ilmiy-tehnikaviy jurnal. – Toshkent. 2022. №3. –В. 55–62.
9. Каримова З. М. и др. УГЛЕВОДОРОДЛАРНИНГ ПИРОЛИЗ ЖАРАЁНЛАРИ //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 19. – №. 6. – С. 6–10.
10. Orifjon K., Zilola K. INVESTIGATION OF THE PROCESS OF OBTAINING ADDITIVE FOR GYPSUMBOARD BASED ON POLYMETHYLENENAPHTHALINE CARBOXYLIC ACIDS //Universum: технические науки. – 2023. – №. 4-7 (109). – С. 55–59.

## GEKSIN-1 VA BA’ZI GETEROATOMLI KETONLAR ASOSIDA ATSETILEN SPIRTLARI SINTEZI

**Salieva Muyassar Kazimjanovna**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, tayanch doktorant  
[muyassar.saliyeva@mail.ru](mailto:muyassar.saliyeva@mail.ru)

ORCID: 0009-0007-5655-9240

**Ziyadullaev Odiljon Egamberdiyevich**

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari, kimyo fanlari doktori, professor  
[bulak2000@yandex.ru](mailto:bulak2000@yandex.ru)

ORCID: 0000-0001-9576-1889

**Otamuxamedova Go‘zal Qamariddinovna**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Ilmiy-tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
[gozal020003@yandex.ru](mailto:gozal020003@yandex.ru)

ORCID: 0009-0007-5655-9240

**Ablaqulov Lochin Qo‘chqarovich**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti  
[Obloqulov@mail.ru](mailto:Obloqulov@mail.ru)

ORCID: 009-0000-5760-4399

UDK 547.316.314.2.261.546.81.6.

**Annotatsiya.** Molekulasida oltingugurt, azot, kislorod, xlor va brom kabi geteroatomli o‘rinbosarlar saqlagan ayrim ketonlar- 1-(tiofenil-2) etanon, 1-(3-metiltiofenil-2) etanon, 1-(furanil-2) etanon, 1-(piridinil-4) etanon, 1-(5-xlortiofenil-2) etanon, 1-(5-bromtiofenil-2) etanonni geksin-1 bilan alkinillash jarayoni o‘rganilgan. Alkinillash jarayoni ilk bor ProPhenol/Me<sub>2</sub>Zn/TGF katalitik sistemada olib borilgan va mos ravishdagi atsetilen spirtlari- 2-(tiofenil-2)-oktin-3-ol-2, 2-(3-metiltiofenil-2)-oktin-3-ol-2, 2-(5-xlortiofenil-2)-oktin-3-ol-2, 2-(5-bromtiofenil-2)-oktin-3-ol-2, 2-(furanil-2)-oktin-3-ol-2, 2-(piridinil-4)-oktin-3-ol-2 sintez qilingan. Qo‘llanilgan kompleks sistemalarning atsetilen spirtlarini hosil bo‘lish samaradorligiga ta’siri taklif etilgan va

reaksiya mexanizmlari keltirilgan. Mahsulot unumiga ta'sir qiluvchi bir qator omillar – harorat, reaksiya davomiyligi, katalizator va erituvchilar, substrat va reagentlar miqdori ta'siri tadqiq qilingan. Olingan natijalar asosida jarayonlar uchun eng muqobil sharoitlar topilgan. Sintez qilingan atsetilen spirtlarining tarkibi, tozaligi, tuzilishi va kvant-kimyoviy xossalari zamonaviy fizik-kimyoviy usullarda isbotlangan. Sintez qilingan atsetilen spirtlari unumining samaradorlik qatorlari aniqlangan. Biologik xossalari o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** geksin-1, ketonlar, katalitik sistema, mahsulot unumi, atsetilen spirtlari.

### SYNTHESIS OF ACETYLENE ALCOHOL BASED ON HEXYN-1 AND SOME HETERATOMIC KETONES

**Abstract.** The process of alkylation of some ketones- 1-(tiophen-2-yl)etanone, 1-(3-metiltiophen-2-yl)etanon, 1-(furan-2-yl)etanone, 1-(piridin-4-yl)etanone, 1-(5-clorotiophen-2-yl)etanone, 1-(5-bromtiophen-2-yl)etanone containing heteroatomic substituents sulfur, nitrogen, oxygen, chlorine and bromine with hexine-1 was studied. The alkylation process was first carried out in the ProPhenol/Me<sub>2</sub>Zn/THF catalytic system and acetylenic alcohols- 2-(tiophen-2-yl)-okt-3-yn-2-ol, 2-(3-metiltiophen-2-yl)-okt-3-yn-2-ol, 2-(5-clortiophen-2-yl)-okt-3-yn-2-ol, 2-(5-bromtiophen-2-yl)-okt-3-yn-2-ol, 2-(furan-2-yl)-okt-3-yn-2-ol, 2-(piridin-4-yl)-okt-3-yn-2-ol were synthesized. The effect of the used complex systems on the efficiency of the formation of acetylene alcohols is proposed and the reaction mechanisms are presented. A number of factors affecting product yield - temperature, duration of reaction, influence of amount of catalyst and solvents, substrate and reagents - were studied. Based on the obtained results, the most alternative conditions for the processes were found. The composition, purity, structure and quantum-chemical properties of the synthesized acetylene alcohols have been proven by modern physico-chemical methods. The efficiency ranges for the production of synthesized acetylene alcohols have been determined.



**Key words:** hexin-1, ketones, catalytic system, product yield, acetylene alcohols.

**Kirish.** Molekulasida galogenlar saqlagan atsetilen spirtlarini sintez qilish usullari va ularning qo'llanilish sohalari bo'yicha dunyoda keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoxda [1-3]. Atsetilen spirtlari sintezi, asosan, aldegid va ketonlarni enantioselektiv alkinillash reaksiyasi orqali amalga oshiriladi [4]. Molekulasida tarmoqlangan o'rnbosarlar tutgan ketonlarga -15 °C haroratda Me<sub>2</sub>Zn/Se ёки Me<sub>2</sub>Zn/PhMe yordamida fenilatsetilen ta'sir ettirib, 81-89% unumgacha atsetilen spirtlari sintez qilingan [5, 6]. Magniy va litiy organik reagentlar ishtirokida alkinlarning ketonlar bilan enantioselektiv nukleofil birikish reaksiyalari o'rganilgan [7]. Fenantrolin/Cu(OTf)<sub>2</sub>/KO'Bu sistemasida galloidli ketonlarni 60 °C haroratda alkinlash reaksiyasi o'rganilgan. Erituvchilar sifatida toluol va tetragidrofuran qo'llanilgan [8]. Alkinlarning triftorometilketon bilan reaksiyasi 20 °C haroratda, 48 soat davomida Me<sub>2</sub>Zn/Ti(O*i*Pr)<sub>4</sub> katalitik sistemada olib borilgan va 85-96% unum bilan ikkilamchi va uchlasmchi atsetilen spirtlari sintez qilingan [9]. Ketonlarni Me<sub>2</sub>Zn/Ti(O*i*Pr)<sub>4</sub>/BaF<sub>2</sub>/PhMe katalitik sistemasi ishtirokida enantioselektiv alkinillash reaksiyasi bo'yicha 98% unumgacha atsetilen spirtlari olingan [10]. Bu<sub>4</sub>NOH/H<sub>2</sub>O/DMSO katalitik komponenetidan foydalanib, aromatik va alifatik aldegid hamda ketonlarni fenilatsetilen bilan reaksiyasi atmosfera bosimi ostida amalga oshirilgan, natijada 91% unumgacha aromatik atsetilen spirtlari sintez qilingan [11]. KF/MeOH ishtirokida sililatsetilenni ketonlarga to'g'ridan to'g'ri biriktirish reaksiyalarini amalga oshirilgan [12]. TBAF·3H<sub>2</sub>O/ДМСО/H<sub>2</sub>O katalitik sistemasida ayrim ketonlarni kalsiy

karbid yordamida enantioselektiv etinillash reaksiyasi bo'yicha terminal atsetilen spirtlari sintez qilingan. Atsetilan spirtlari unumiga asoslanib, ketonlar molekulasidagi radikallar va o'rinbosarlar tabiatini, joylashuvini va ularning fazoviy ta'sir etish xususiyatiga ko'ra ularning nisbiy faoliyatini aniqlangan [13].


**Tadqiqot metodologiyasi.** Yuqori haroratga bardoshli hajmi 2000 ml bo'lgan to'rt og'izli kolbaga qaytarma sovutkich, tomizgich voronka, termometr, aralashtirgich o'rnatilgan sistemada amalga oshiriladi. Kolbaga dastlab 120 ml tetragidrofuran, 95 g dimetilrux va 102,5 g 1-geksin solinadi va 60 minut davomida aralashtirildi. So'ngra aralashmaga 60 minut davomida 159,7 g ProPhenol ning tetragidrofurandagi eritmasi va 110 g 1-(furanyl-2)-etanon tomchilatib qo'shildi. Reaksiya -5- 0 °C haroratgacha sovutildi va 22 soat davomida aralashtirildi. Aralashma tindirildi va NH<sub>4</sub>Cl (50 ml) to'yingan suvli eritmasi bilan to'yintirildi. Katalizatni qismlarga ajratish uchun dietilefir (3×100 ml) yordamida ekstraksiya qilindi. Organik qatlama Na<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> yordamida quritildi, erituvchilar oddiy sharoitda haydab olindi, natijada 84% unum bilan 2-(furanyl-2)-oktin-3-ol-2, 9% qo'shimcha mahsulotlar va 7% boshlang'ich mahsulot 1-(furanyl-2)-etanon ajratib olindi. Ushbu usul bo'yicha 2-(tiofenil-2)-oktin-3-ol-2, 2-(3-metiltiofenil-2)-oktin-3-ol-2, 2-(5-xlortiofenil-2)-oktin-3-ol-2, 2-(5-bromtiofenil-2)-oktin-3-ol-2, 2-(piridinil-4)-oktin-3-ol-2 sintezi ham amalga oshirildi.

**Jarayon ximizmi va mexanizmi.** Molekulasida azot, oltingugurt, brom, xlor, kislород saqlagan 1-(tiofenil-2)-etanon, 1-(3-metiltiofenil-2)-etanon, 1-(5-xlortiofenil-2)-etanon, 1-(5-bromtiofenil-2)-etanon, 1-(furanyl-2)-etanon, 1-(piridinil-4)-etanonni ProPhenol/Me<sub>2</sub>Zn/TGF katalitik sistemasida geksin-1 bilan alkinillash reaksiyasi asosida quyidagi atsetilen spirtlari – 2-(tiofenil-2)-oktin-3-ol-2 (**1**), 2-(3-metiltiofenil-2)-oktin-3-ol-2 (**2**), 2-(5-xlortiofenil-2)-oktin-3-ol-2 (**3**), 2-(5-bromtiofenil-2)-oktin-3-ol-2 (**4**), 2-(furanyl-2)-oktin-3-ol-2 (**5**), 2-(piridinil-4)-oktin-3-ol-2 (**6**) ni sintez qilish reaksiya sxemasi adabiyot manbalari asosida quyidagicha taklif etildi [14, 15].




ProPhenol/Me<sub>2</sub>Zn/TGF katalitik sistemasida tanlangan reagent va substratlar asosida atsetilen spirtlarini sintez qilish jarayoni reaksiya mexanizmi adabiyot manbalari asosida quyidagicha taklif qilindi.


Dastlab tetragidrofuran yordamida ProPhenol ligandi dimetilrux bilan ta'sirlashib, uchta gidroksil guruhini deprotonlashtirib, barqaror bisrux kompleks tuzini hosil qiladi.



ProPhenol ligandining bisrux kompleks tuzi geksin-1 ning faol vodorod atomi bilan almashinib oraliq katalitik komponent hosil qiladi.




Olingan oraliq katalitik komponent tarkibida ham Lyuis kislotosi ham Brensted assosi mavjud bo'lib, bir vaqtning o'zida ikkita reaktivni faollashtiradigan dublet katalizator sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni Brensted assosi ishqoriy muhitda nukleofilni deprotonlash bilan faollashtirdi va ketoni enolyatga aylantirdi.




Boshqa tomondan, Lyuis kislotali qismi elektrofilni metall markazga muvofiqlashtirish orqali faollashtirib, geksin-1 ning kislotalik xossasi hisobiga ketonning

karbonil guruhi tarkibidagi musbat zaryadlangan uglerod atomiga nukleofil hujumni ta'minlaydi.



Jarayonning keyingi bosqichida metall almashinishi asosida rux alkoksidi ajralib chiqadi va faol katalizatorni qayta tiklaydi. Katalizatorning shu tarzda aylanishi rux organik birikmalar reaktivining stexiometrik miqdoridan foydalanishni talab qiladi. Aksincha, katalizator ProPhenol tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri aldol reaksiyasi faqat katalitik miqdordagi dialkil rux reaktivini talab qiladi va mahsulot alkoxsidining dissotsiyalanishi asosida proton almashinuvini ta’minlaydi.




**Natijalar va muhokama.** Tanlangan ketonlarni geksin-1 ishtirokida etinillash jarayoni uchun taklif etilgan katalitik sistema ProPhenol/Me<sub>2</sub>Zn/TGF ning boshlang‘ich moddalar massasiga nisbatan olingan mol miqdori ta’siri tahlil qilindi. Boshlang‘ich moddalar va katalitik sistema mol miqdorlari 1:1,25:0,25:1 mol nisbatlarda, erituvchi tetragidrofuran, -5- 0 °C haroratda, 24 soat davomida olib borilganda, sistemada faollanish energiyasining kamayishi hamda jarayonda alkin miqdoriga nisbatan katalitik sistema teng ekvivalent nisbatda olinishi molekula va ionlar to‘qnashuvlar soni ortishi asosida geteroatom atsetilen spirlarining unumdorligi yuqori bo‘lishini taqozo etdi. Aksincha, reaksiya jarayonida alkinning miqdoriga nisbatan ProPhenol va Me<sub>2</sub>Zn mol miqdorlari teng nisbatda olinmaganligi sistemada reaksiyon markazlarning yetarli darajada hosil bo‘lmasligi hisobiga mahsulot unumining selektivligi pasayishiga sabab bo‘ldi. Reaksiya jarayonida alkin va dimetilruxning miqdorini oshiranimizda rux alkoxsidlari hosil bo‘lib, alkin miqdori sistemada ortib qolgani aniqlandi va enantioselektivlikning sezilarli pasayishiga olib keldi.


Alkin miqdorining ortgani sistemadagi ortiqcha suv bilan reaksiyaga kirishib, gidrolizlanishi natijasida qo‘srimcha moddalarning hosil bo‘lishiga imkon yaratdi va unumning pasayishiga sabab bo‘ldi. Reaksiya jarayoni davomida unumdorlikni oshirish maqsadida ketonlarning miqdori oshirilganda, reaksiya unumining pasayishi va ketonlarning to‘liq alkinillanishi uchun alkin miqdori yetishmaganligi, aldol yon mahsulotlarining ishlab chiqarilishi kuzatildi.

Atsetilen spirtlar unumiga reaksiya davomiyligining ta'siri 12-36 soat interval oralig'ida tadqiq qilindi. Reaksiya davomiyligi 12 soatdan 24 soatga oshib borishi bilan metallalkinilni hosil bo'lishi unumi hamda molekula va ionlar to'qnashuvlari soni ortishi bilan mahsulot unumi yuqori bo'lishi kuzatildi. Reaksiya 36 soatda olib borilganda esa boshlang'ich mahsulotlar oxirigacha reaksiyaga kirisha olmaydi va aralashmada qolib ketishi, hamda katalizator bilan reaksiyaga kirishib atsetilenidlar hosil qilishi hisobiga katalizator miqdorini va katalitik faolligini kamaytiradi, natijada mahsulot unumiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bundan tashqari ishqoriy muhitda atsetilen spirtlari qisman degidratlanish reaksiyasiga uchrashi kuzatildi va molekulasida qo'sh va uch bog' saqlagan to'yinmagan uglevodorodlar hosil qilishi, hamda atsetilen spirtlari dastlabki moddalarni qaytadan hosil qilish jarayoni kuzatildi.

Elektrofil karbonil uglerodning nukleofil reagent bilan  $\delta$  bog'lanish amalga oshirish uchun kationlarni yaxshi stabillovchi qutbli aproton erituvchilari qulay hisoblanadi. Shu sababdan ketonlarni etinillash jarayoni uchun MeCN, DMSO va TGF kabi erituvchilar tabiatining atsetilen spirtlari unumiga ta'siri o'r ganildi. Erituvchi sifatida TGF dan foydalanylinda mahsulot unumi eng yuqori darajaga chiqishi aniqlandi. Chunki TGF tarkibidagi kislorod atomi umumlashmagan elektron juftiga ega bo'lib, manfiy zaryadning halqada kuchli delokallangani uchun juda kuchli asos xossasini namoyon qiladi, natijada katalitik sistemaning faolligini oshirdi va mahsulot unumining ortishiga sabab bo'ldi. MeCN kuchsiz asos bo'lib, tarkibidagi azot atomida erkin elektron jufti mavjud, u reaksiya jarayonida katalizator bilan suspenziya hosil qilib, reaksiyaga kirishdi va alkogolyatlarga aylandi, natijada reaksiya unimiga salbiy ta'sir etdi. DMSO qutblangan aproton erituvchi bo'lib, reaksiya jarayonida foydalanganda mahsulot unumining TGF ga nisbatan past chiqishi va MeCN ga nisbatan yuqori chiqishi kuzatildi.

Atsetilen spirtlari molekulasidagi atomlarning xossalari HyperChem Activation 8 paketi STAT dasturi asosida o'r ganildi.





Olib borilgan taddiqot natijalariga ko‘ra ProPhenol/Mg<sub>2</sub>Zn/TGF katalitik sistemasida geksin-1 ning tanlangan ketonlar bilan reaksiya uchun eng samarali usuli muqobil sharoiti topildi, unga ko‘ra boshlang‘ich moddalar va katalitik sistema miqdori 1:1,25:0,25:1 mol nisbatda, harorat -5- 0 °C, erituvchi TGF, reaksiya davomiyligi 24 soat bo‘lganda atsetilen spirtlari eng yuqori unum bilan sintez qilindi.

**Xulosa.** ProPhenol/Me<sub>2</sub>Zn/TGF katalitik sistemasi yordamida ilk bor atsetilen spirtlari sintezi amalga oshirildi. Atsetilen spirtlari unumiga harorat, reaksiya davomiyligi, katalizator, boshlang‘ich moddalar, erituvchilar tabiatи hamda miqdorining ta’siri tadqiq qilindi.

Ketolarni karbonil guruhi uglerodiga joylashgan radikallar barqarorligi, tabiatи, tarmoqlanishi va fazoviy joylashuv jarayonining borishi va mahsulot unumiga ta’sir etish mexanizmlari va qonuniyatları ishlab chiqildi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati

1. Jungjoon Kim, Wook Jeong, Young Ho Rhee Flexible Tetrahydropyran Synthesis from Homopropargylic Alcohols Using Sequential Pd-Au Catalysis // Journal Organic Letters, 2017. Volume 19, Issue 1, pp. 242–245.
2. S. Jiang, S. Du, R. Yang, F. Jin, Z. Zhou, W. Tian, X. Song Brønsted Acid Promoted Sulfenylation of Propargylic Alcohols // European Journal of Organic Chemistry, 2023. Volume 20, Issue 22, pp. 1377–1386.
3. Pandey A.R., Tiwari D.K., Mishra D.P., Sharma S.K. A Review Towards Synthesis of Heterocycles Using Propargyl Alcohols and Propargyl Amines // Journal of Monatsh Chemistry, 2022. Volume 24, Issue 153, pp. 383–407.
4. Manabu Hatano, Kazuaki Ishihara Recent Progress in the Catalytic Synthesis of Tertiary Alcohols from Ketones with Organometallic Reagents // Journal Chemical Reviews, 2008. Volume 29, Issue 11, pp. 1647–1675.

5. Pier Giorgio Cozzi Enantioselective Alkynylation of Ketones Catalyzed by Zn(Salen) Complexes // Journal Angewandte Chemie, 2003. Volume 4, Issue 42, pp. 2895–2898.
6. Pier Giorgio Cozzi, Jens Rudolph, Carsten Bolm, Per-Ola Norrby Claudia Tomasini Me<sub>2</sub>Zn-Mediated Addition of Acetylenes to Aldehydes and Ketones // Journal of Organic Chemistry, 2005. Volume 70, pp. 5733–5736.
7. Manabu Hatano, Kazuaki Ishihara Recent Progress in the Catalytic Synthesis of Tertiary Alcohols from Ketones with Organometallic Reagents // Journal Chemical Reviews, 2008. Volume 29, Issue 11, pp. 1647–1675.
8. Rie Motoki, Motomu Kanai, Masakatsu Shibasaki Copper(I) Alkoxide-Catalyzed Alkynylation of Trifluoromethyl Ketones // Journal Organic Letters, 2007. Volume 9, Issue 16, pp. 2997–3000.
9. Andrea Cook Efficient Access to Multifunctional Trifluoromethyl Alcohols Through Base-Free Catalytic Asymmetric C-C Bond Formation With Terminal Ynamides // Journal Angewandte Chemie, 2016. Volume 55, pp. 2929–2933.
10. Guang Wu Zhang, Wei Meng, Hai Ma, Jing Nie, Wen Qin Zhang, Jun An Ma Catalytic Enantioselective Alkynylation of Trifluoromethyl Ketones: Pronounced Metal Fluoride Effects and Implications of Zinc-to-Titanium Transmetallation // Journal Angewandte Chemie, 2011. Volume 123, pp. 3600–3604.
11. Elena Yu. Schmidt, Natalia A. Cherimichkina, Ivan A. Bidusenko, Nadezhda I. Protzuk, Boris A. Trofimov Alkynylation of Aldehydes and Ketones Using the Bu<sub>4</sub>NOH/H<sub>2</sub>O/DMSO Catalytic Composition // European Journal of Organic Chemistry, 2014. Volume 2014. Issue 21, pp. 4663–4670.
12. Krzysztof Kuciński, Alicja Łuczak, Aliaksei Mankouski Base Catalyzed Addition of Silylacetylenes to Ketones: A Route to Protected Tertiary Propargyl Alcohols // Organic Chemistry Frontiers, 2023. Volume 4, Issue 10, pp. 2752–2759.
13. Tirkasheva S.I., Ziyadullayev O.E., Nenaydenko V.G., Qo'shboqov F.Z. Turli xil tabiatga ega ketonlarni enantioselektiv etinillash asosida atsetilen spirtlari sintezi // Farg'ona davlat universiteti ilmiy xabarlari jurnalı, 2023. №3, 11–17 b.
14. Ji Cai Zhou, Lei Zhao, Yuan Li, Ding-Qiang Fu, Zi Cheng Li Alkynylation of Aldehydes Mediated by Zinc and Allyl Bromide: A Practical Synthesis of Propargylic Alcohols // Research on Chemical Intermediates, 2017. Volume 43, pp. 4283–4294.
15. Barry M. Trost, Mark J. Bartlett ProPhenol-Catalyzed Asymmetric Additions by Spontaneously Assembled Dinuclear Main Group Metal Complexes // Accounts of Chemical Research, 2015. Volume 48, Issue 3, pp. 688–701.

## OKSIDLASH REAKSIYALARI ASOSIDA 4-GIDROKSI-2,3-PENTA-METILEN-3,4-DIGIDROXINAZOLIN-4-ON SINTEZI

Xakimova Zuxra

Qarshi davlat universiteti dotsenti

Xudoyberdiyeva Ozoda

Qarshi davlat universiteti magistranti

[xuxraxakimova1968@gmail.com](mailto:xuxraxakimova1968@gmail.com)

ORCID 0009-0004-1495-4267

UDK 547.735,854

**Annotatsiya.** 4-Gidroksi-2,3-pentametilen-3,4-digidroxinazolin biologik faol bo'lgan peganolning analogi bo'lib, uning molekulasida bir necha reaksiyon markazlar borligi bilan, ya'ni 1- va 3-holatda azot atomi, C-4 da gidroksil guruhi va harakatchan vodorod atomi mavjudligi hamda sikloalkan va benzol halqasining borligi bu birikmaning elektrofil va nukleofil almashinish reaksiyalarini o'rganish qiziqarliligidan dalolat beradi. 2,3-Pentametilen-3,4-digidroxinazolin gidroxloridni KMnO<sub>4</sub> ning eritmasi bilan oksidlanguanda 2,3-pentametilen-3,4-digidroxinazolin-4-on va 4-gidroksi-2,3-pentametilen-3,4-digidroxinazolin aralashmasidan tashkil topganligi aniqlandi. Ular ham